

Mavzu: Matn. Tayanch soʻzlar

Aa Shifokor bolaning
barmoqiga yod surtdi.

yod

LUGʻAT



Yod yunoncha soʻz boʻlib, “binafsha rangli” degan maʼnoni bildiradi. Bu modda jarohatlangan joyga surtiladi. U mikroblarni oʻldirib, yara tezroq bitishiga yordam beradi. Shuningdek, yod organizmimiz uchun juda zarur. Organizmda yod yetishmasligi uyquchanlik, tez-tez shamollash, ish qobiliyatining pasayishi va ortiqcha vaznga sabab boʻladi.

**1-mashq. Gaplarning chegarasini aniqlab, oʻqing.**

Murodjon hovlida yiqilib tushdi u onasini chaqirdi ular poliklinikaga bordilar shifokor opa bolaning jarohatini yod bilan artib bint bilan bogʻlab qoʻydi Murodjon unga rahmat aytdi

- Gaplarning chegarasini aniqlashda sizga nima yordam berdi?



**2-mashq. Rasmni kuzating.**

• Savollarga bir soʻz bilan javob berishga harakat qiling.

1. Bu voqea qachon sodir boʻldi?
2. Havo qanday edi?
3. Bolalar qayerda sayr qilishdi?
4. Ular barglar orasida nimani koʻrib qolishdi?
5. Bolalarning kayfiyati qanday edi?

- Javoblaringiz asosida bogʻlanishli matn yozing.
- Matnga mos sarlavha qoʻying.



Tayanch soʻzlar asosiy soʻzlardir. Ular berilgan mavzuga doir gap va matn tuzishda yordam beradi.



3-mashq. Topishmoqning javobini toping.

Yerga tushsa¹, loy qilar,
Dehqonlarni boy qilar.

- Ko'chiring.
- Qaysi so'zlar topishmoqni topishga yordam berdi? Tayanch so'zlarning tagiga chizing.



4-mashq. So'zlardan ikkita gap tuzib, yozing.

Malika ikkinchi o'qiydi sinfda

O'quvchilar bilib darslarda

yangi va qiziqarli

olishadi narsalarni



5-mashq. Rasmlar o'rniga so'zlarni qo'yib, ertakni o'qing. Gaplarning chegarasini aniqlab, ko'chiring.



da adashib qoldi u bir



oldiga keldi bu uyda  yashar ekan qizcha uyga

kirdi uyda hech kim yo'q, ular ovga ketishgan edi...

- Ertakni davom ettiring.

